
TOJIKISTONNING O'ZBEKISTONDAGI FAVQULODDA VA MUXTOR ELCHISI ABDUJABBOR RAHMONZODA BOSHCHILIGIDAGI MEHMONLAR GURUHI SO'X TUMANIDA!



Tojikistonning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Abdujabbor Rahmonzoda boshchiligidagi mehmonlar guruhi So'x tumanida!

Davlatimiz rahbarining kuchli siyosiy irodasi tufayli bugun O'zbekiston dunyoga yuz tutmoqda. Ayniqsa, qo'shni davlatlar bilan o'rnatilgan va tobora mustahkamlanib borayotgan do'stlik va hamkorlik rishtalari xalqlarimiz o'rtasidagi o'zaro mehr-muhabbatni ham yanada mustahkamlamoqda.

Ayniqsa, qo'shni Tojikiston respublikasi bilan o'rnatilgan do'stlik va hamkorlik rishtalari o'zining samaralarini berayotir. So'x tumani mana shunday samimiy munosabatlar va mustahkam hamkorlikning mehvariga aylanmoqda.

Tojikistonning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Abdujabbor Rahmonzoda va O'zbekiston Respublikasi Tojik milliy-madaniy markazi raisi Gulandom Subhonova boshchiligidagi tumanimizga tashrif buyurgan ishchi guruh ishtirokida tumanimizning mahalla fuqarolar yig'inlari va ta'lim muassasalarida turli madaniy va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bo'lib o'tmoqda. Mazkur tadbirlar majmui "Najot - ilmda, baxt - do'stlikda" shiori ostida o'tkazilib, O'zbekiston respublikasi madaniyat vazirligi huzuridagi millatlararo munosabatlar va do'stlik aloqalari qumitasi, Farg'ona viloyati So'x tumani hokimligi, Respublika tojik milliy madaniy markazi va O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi hamkorligida tashkil etilgan.

o'рта ta'lim maktablarida bo'lishdi. Tashkil etilgan uchrashuv va davra suhbatlari g'oyatda maroqli va samimiy ruhda bo'lib o'tdi. Bugun mehmonlar ishtirokidagi tadbirlar davom etadi va ushbu tashrifga doir xabarlarni kun davomida Siz – aziz muxlislarga taqdim etamiz.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati











[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-12-03 17:13:26